

**BADIIY MATNLARDA SO‘Z O‘YINLARINI IFODALOVCHI LINGVISTIK VOSITALAR**

**Saparov Eldor Niyatilla o‘g‘li,**  
*Toshkent Amaliy Fanlar o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18409922>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badiiy matnlarda so‘z o‘yinlarini yuzaga keltiruvchi asosiy lingvistik hodisalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. So‘z o‘yinlari badiiy nutqning muhim ifodaviy vositasi sifatida ko‘rib chiqilib, ularning polisemiya, omonimiya, paronimiya, fonetik uyg‘unlik va semantik transformatsiyalar bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, so‘z o‘yinlarining badiiy matndagi estetik, pragmatik va kommunikativ funksiyalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari badiiy matn tili va lingvopoetik tahlil masalalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z o‘yini, badiiy matn, lingvistik hodisa, polisemiya, omonimiya, lingvopoetika.

**Аннотация.** В статье проводится научно-теоретический анализ лингвистических явлений, формирующих словесную игру в художественных текстах. Словесная игра рассматривается как важное выразительное средство художественной речи, основанное на полисемии, омонимии, паронимии, фонетической созвучности и семантических трансформациях. Также раскрываются эстетические, прагматические и коммуникативные функции словесной игры в художественном тексте. Результаты исследования имеют значение для лингвопоэтического анализа художественных произведений.

**Ключевые слова:** словесная игра, художественный текст, лингвистическое явление, полисемия, омонимия, лингвопоэтика.

**Abstract.** This article presents a theoretical analysis of linguistic phenomena that generate wordplay in literary texts. Wordplay is examined as a significant expressive device of literary language, based on polysemy, homonymy, paronymy, phonetic resemblance, and semantic transformations. The paper also discusses the aesthetic, pragmatic, and communicative functions of wordplay in literary discourse. The findings contribute to the study of literary language and linguopoetic analysis.

**Keywords:** wordplay, literary text, linguistic phenomenon, polysemy, homonymy, linguopoetics.

**Kirish.** Hozirgi o‘zbek tilshunosligida nutq birliklarining mazmuniy mundarijasi bilan bog‘liq muammolar orasida sintaktik butunliklarning yashirin mazmun ifodalash xususiyati alohida dolzarblik kasb etadi. Sintaktik tuzilmalar orqali bevosita ifodalanmagan, biroq nutqiy vaziyat, kontekst va kommunikativ maqsad asosida anglashiladigan mazmun qatlamlari til tizimining muhim funksional imkoniyatlarini namoyon etadi. Bunday hodisalarni tadqiq etish lingvistik izlanishlarning pragmatik aspekti doirasida amalga oshiriladi. Pragmatika mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida XX asrning 30-yillarida amerikalik olim Ch.U. Morris tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u til belgilarining qo‘llanish jarayonidagi funksional, kommunikativ va ijtimoiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda til birliklarining faqat semantik yoki struktur xususiyatlari emas, balki ularning nutq jarayonidagi real ishlatilishi, so‘zlovchining kommunikativ niyati hamda adresat omili bilan bog‘liq jihatlari asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tilshunos O.S. Axmanovning ta'kidlashicha, pragmatik tadqiqotlar markazida til birliklarining lug'aviy ma'nosi emas, balki ularning nutqiy aloqada shakllanadigan qo'shimcha, kontekstual va situativ ma'nolari turadi. Har qanday matnning semantik tuzilishida inson omili — muallif yoki so'zlovchining ichki ruhiy holati, emotsional kechinmalari va subyektiv bahosi muhim rol o'ynaydi. Aynan shu omillar ta'sirida yuzaga keladigan yashirin mazmun pragmatikaning asosiy tekshiruv obyekti hisoblanadi [1]. So'nggi yillarda o'zbek pragmatolingvistikasi sohasida izchil tadqiqotlar olib borilib, badiiy matn pragmatikasi, nutq aktlari, tagmatn (podtekst), implitsit mazmun kabi masalalar muayyan darajada yoritildi [2]. Ayrim yozuvchilar ijodining lingvostilistik xususiyatlari ham pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Shunga qaramay, so'z o'yini kabi murakkab va ko'p qatlamli hodisaning lingvistik tabiatini tizimli ravishda o'rganish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda [3]. So'z o'yini pragmatika va stilistika kesishgan nuqtada joylashgan lingvistik hodisa bo'lib, G'arb tilshunosligida uning turli jihatlari atroflicha tadqiq etilgan. So'z o'yini, xususan, kalambur shaklida namoyon bo'lib, so'zlarning ko'p ma'noliligi, omonimligi yoki fonetik o'xshashligiga asoslanadi. "Kalambur" (fr. calembour) so'zlarni noodatiy va kutilmagan tarzda qo'llash orqali estetik va pragmatik ta'sir hosil qilishga qaratilgan nutqiy usul sifatida talqin qilinadi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va funksional-pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Badiiy matnlardagi so'z o'yinlari lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlari kontekst doirasida o'rganildi. Shuningdek, implikatura va presuppozitsiya nazariyalariga tayangan holda yashirin mazmun qatlamlarini aniqlash usuli qo'llanildi. Tadqiqotda nazariy manbalar tahlili va badiiy asarlardan olingan misollar asosiy empirik material sifatida xizmat qildi.

**Tahlillar va natijalar.** So'z o'yinlarida xalqning zakovati, hozirjavobligi, donishmandligi va nozik so'z san'atkorligi mujassam bo'ladi. Ular yuksak estetik did, fikrning badiiy shaklda ifodalanishi va til imkoniyatlaridan ijodiy foydalanishning yorqin namunasidir. Shu bois so'z o'yinini faqat stilistik vosita sifatida emas, balki mustaqil lingvopoetik hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir [5]. So'z o'yinlarida xalqning bilimdonligi, donishmandligi, zakovati va hozirjavobligida namoyon bo'ladigan donolik fazilatlarini, shuningdek, nozik va hassos so'z san'atkorligi mujassam bo'ladi. So'z o'yinlari yuksak estetik zavq, baland did va teran tafakkur belgisi bo'lib, fikrni go'zal va badiiy shaklda ifodalashning o'ziga xos usuli sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek lingvopoetikasiga oid tadqiqotlarda so'z o'yiniga ko'pincha matnning mustaqil bir turi sifatida emas, balki alohida stilistik vosita sifatida yondashilgan. Holbuki, so'z o'yini o'ziga xos ifoda vositalari tizimi hamda muayyan lingvostilistik talablariga ega bo'lgan emotsional-ekspressiv nutq ko'rinishi, ya'ni matnning maxsus bir turi hisoblanadi. So'z o'yini o'zbek so'zlashuv nutqining milliy va tabiiy xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. So'z o'yini

o‘zining maxsus sintaktik shakllar tizimiga, matnni shakllantiruvchi vositalar majmuasiga ega bo‘lishi bilan birga, “tilning shirasini quyushtiruvchi”, “nutqning ta’sir quvvatini oshiruvchi”, “estetik vazifaning amalga oshishiga zamin yaratuvchi” hamda “til taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch” — allofroniyaga tayangan hodisa sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, so‘z o‘yinlari “ikki turli talqin va sharhga ega bo‘lgan holda ifodaning noaniqligi” (amfiboliya) asosida yuzaga keladigan “ikki ma’noli ifodalar” (Aristotel) bilan boy bo‘ladi. Keng qamrovli hodisa hisoblangan so‘z o‘yinlari va uning o‘zbek tilshunosligidagi lingvistik talqini maxsus va tizimli tadqiqotlarni talab etadi.

So‘z o‘yini o‘zida keng ko‘lamli implitsit axborotni mujassam etadi. Implitsitlik tilshunoslikda “tilning yashirin kategoriyalari” sifatida talqin qilinadi. So‘zning tashqi shakli orqali bevosita ifodalanmaydigan, biroq uning ichki mazmunida mavjud bo‘lgan kognitiv axborot fon bilimlar asosida idrok etiladi. Bunday lisoniy birliklar tilshunoslikda turli atamalar bilan yuritilib kelinmoqda. Ular orasida eng ko‘p qo‘llaniladiganlari implikatsiya, implitsit mazmun, implitsit ma’no, implitsit axborot, yashirin fikr (tenevoye vyskazyvanie), ikkilamchi ma’no, ataylab qoldirib ketilgan fikr (namerenniye smyslovyye propuski), kontekstni rivojlantiruvchi tushunchalar hisoblanadi. Lisoniy ongda shakllanadigan bunday birliklar ko‘pincha semantik murakkablik, nutqdan oldin nazarda tutilgan mazmun, qo‘shimcha axborot, semantik kompressiya va ma’noviy ko‘pqatlamlilik bilan tavsiflanadi [6], Nutqdan oldin ifodalangan fikr — muloqot jarayonida bevosita aytilmagan, ammo nutq egasining oldindan mavjud bo‘lgan niyati, kommunikativ maqsadi va kognitiv tajribasiga tayangan holda shakllanadigan mazmuniy asosdir. Ushbu fikr nutqning yuzaga chiqishidan avval lisoniy ongda mavjud bo‘lib, keyinchalik kontekst orqali faollashadi. Qo‘shimcha axborot — nutqning tashqi shaklida ochiq ifodalanmagan, biroq fon bilimlar, presuppozitsiya va kontekst ta’sirida adresat tomonidan idrok etiladigan semantik qatlamdir. Qo‘shimcha axborot nutq mazmunini kengaytiradi, unga chuqurlik va ko‘pma’nolilik baxsh etadi. Nutqdan anglashiladigan qo‘shimcha ma’no — lisoniy birliklarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik mazmunidan tashqarida, implitsit tarzda shakllanadigan va kontekst, vaziyat hamda pragmatik omillar asosida yuzaga chiqadigan ikkilamchi ma’nodir. Bunday ma’no, ayniqsa, so‘z o‘yinlari, kinoya, istehzo va askiya kabi nutq shakllarida faol namoyon bo‘ladi [7], Semantik kompressiya — nutqda mazmunning ixcham shaklda ifodalanishi natijasida ayrim semantik komponentlarning ochiq bayon etilmasdan, kontekst va fon bilimlar asosida anglashilishini ta’minlovchi hodisadir. Semantik kompressiya nutqni iqtisodiyashtiradi, uning informativ sig‘imini oshiradi va implitsit ma’no yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Ma’noviy qoldiq — nutqning asosiy mazmuni ifodalangandan so‘ng, lisoniy birliklar tarkibida saqlanib qoladigan va bevosita aytilmagan, ammo idrok jarayonida faollashadigan qo‘shimcha semantik qatlamdir. Ma’noviy qoldiq o‘quvchi yoki tinglovchining kognitiv faolligini kuchaytirib, matnning ko‘pqatlamli talqiniga imkon beradi. Semantik ellipsis — nutq jarayonida ayrim ma’no komponentlarining ataylab tushirib qoldirilishi natijasida yuzaga keladigan hodisa

bo‘lib, mazkur komponentlar kontekst, vaziyat yoki umumiy bilimlar asosida tiklanadi. Semantik ellipsis nutqning ifodaviyligini oshirib, yashirin mazmun shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Implitsit predikatsiya — predikativ munosabatning ochiq grammatik shaklda emas, balki bilvosita, implitsit tarzda ifodalanishi bilan tavsiflanadigan hodisadir. Bunda predikat ma‘nosi kontekst, intonatsiya yoki pragmatik omillar orqali anglashilib, nutq mazmunining yashirin qatlamini tashkil etadi. Mazkur hodisalarni izohlashda pragmatik tilshunoslik doirasida ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, G. Grais tomonidan taklif etilgan implikatura nazariyasi nutqda ochiq ifodalangan ma‘no bilan implitsit mazmun o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tadqiq etishda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Grais ta‘kidlaganidek, muloqot jarayonida nutq egasi ko‘pincha barcha fikrini to‘liq ifodalamaydi, balki adresatning mantiqiy xulosalari va umumiy bilimlariga tayangan holda aytilmagan, biroq anglashiladigan ma‘noni yuzaga chiqaradi. Ana shu anglashiladigan yashirin mazmun implikatura sifatida talqin qilinadi. Implikatura, ayniqsa, so‘z o‘yinlariga asoslangan nutq shakllarida, jumladan, askiyada faol namoyon bo‘ladi. Bunda nutqning ta‘sirchanligi va estetik qiymati ochiq bayon etilgan axborotdan ko‘ra, aynan aytilmagan, ammo kontekst orqali tiklanadigan qo‘shimcha ma‘noga bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan implikatura so‘z o‘yinlarining semantik mexanizmini tashkil etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Implitsit mazmun bilan chambarchas bog‘liq yana bir muhim hodisa — presuppozitsiyadir. Presuppozitsiya nutqdan oldin mavjud bo‘lgan, muloqot ishtirokchilari tomonidan umumiy va ma‘lum deb qabul qilinadigan bilimlar majmuasini anglatadi. Agar implikatura nutq jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy xulosa sifatida shakllansa, presuppozitsiya nutqning semantik poydevorini tashkil etadi. So‘z o‘yinlari jarayonida ushbu ikki hodisa o‘zaro uzviy bog‘lanib, mazmunning ko‘pqatlamliligini ta‘minlaydi. Aynan presuppozitsiyaga tayanilgan holda implikatura yuzaga chiqadi va nutqning yashirin semantik imkoniyatlari faollashadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, qo‘shimcha ma‘no, emotsional mazmun, fikrning implitsit mazmuni va podtekst kabi hodisalar freym tuzilmalari doirasida izohlanadi. Bunda ular freymning tarkibiy unsurlari — subfreymalar yoki terminallar sifatida talqin qilinadi. Lisoniy birliklar faqat lug‘aviy ma‘no bilan cheklanib qolmay, balki muayyan konseptual tuzilmalarga ulanadi va shu orqali yashirin mazmun yuzaga keladi. Bu holat so‘z o‘yinlarini faqat stilistik vosita emas, balki kognitiv faoliyat mahsuli sifatida baholash imkonini beradi. So‘z o‘yinlarining badiiy nutqdagi ifodasi, ayniqsa, askiya janrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Askiyada fikrning asosiy mazmuni ko‘pincha ochiq aytilmaydi, balki kinoya, qochirim, semantik ellipsis va implitsit predikatsiya orqali ifodalanadi. Tinglovchi esa ushbu yashirin mazmunni o‘zining fon bilimlari, madaniy tajribasi va vaziyatni idrok etish qobiliyatiga tayangan holda anglaydi. Natijada askiya nutqi yuqori darajadagi semantik zichlik va estetik ta‘sirchanlikka ega bo‘ladi.

Mazkur xususiyatlar o'zbek tarixiy-badiiy adabiyotida ham kuzatiladi. Xususan, Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida tarixiy shaxslar nutqida qo'llangan kinoyali iboralar, ko'p ma'noli so'zlar va kontekstga bog'liq qochirimlar implitsit mazmunning yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Asardagi ayrim dialoglar tashqi tomondan sodda va betaraf ko'rinsa-da, ularning tagida siyosiy vaziyat, ijtimoiy munosabatlar va qahramonlarning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi tagma'no mujassam bo'ladi. Bu esa so'z o'yinlarining tarixiy asarlarda nafaqat estetik, balki pragmatik va kognitiv vazifalarni ham bajarishini ko'rsatadi [8]. Umuman olganda, so'z o'yinlari implikatura, presuppozitsiya, semantik kompressiya va freym tuzilmalari bilan uzviy bog'langan murakkab lisoniy hodisa bo'lib, ularni tizimli va kompleks yondashuv asosida tadqiq etish o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So'z o'yini kontekstida ifodaning umumyashirin mazmuniy ko'rinishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan axborot ifodalanadi. Ifodaning umumyashirin mazmuni quyidagi ko'rinish va uslubiy shakllarda namoyon bo'ladi: implikatsiya, tagma'no, alluziya, presuppozitsiya hamda nomatniy ma'no ("zatekst"). Tilshunos olim I.V. Arnold ta'kidlaganidek, tagma'no, ellipsis, alluziya, semantik murakkablashuv va matniy yashirin mazmun umumyashirin mazmun shakllari hisoblanadi. So'z o'yini asosida qurilgan badiiy matn quyidagi jihatlari bilan boshqa matn ko'rinishlaridan farqlanadi:

1. Matnning asosiy konstruktiv asosi so'z o'yinlariga tayangan holda shakllantiriladi;

2. So'z o'yini kontekstida bir vaqtning o'zida bir nechta implitsit axborot qatlamlari yuzaga chiqadi;

3. Lisoniy birliklarda xilma-xillik, semantik murakkablik, ko'ptalqinlilik, me'yoriy chekinishlar, anomal jarayonlar va lisoniy anomaliyalar ro'y beradi.

So'z o'yini hodisasi keng qamrovli ifoda etish kompleksiga ega bo'lib, u badiiy adabiyotda muallifning estetik va kommunikativ niyatini bilvosita ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matnda so'z o'yini muallif pozitsiyasini ochish, obrazlar xarakterini chuqurlashtirish, tarixiy va madaniy kontekstni yashirin tarzda aks ettirish hamda o'quvchi tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. O'zbek badiiy adabiyoti va xalq og'zaki ijodida so'z o'yinlari keng miqyosda qo'llaniladi. Ular xalq qo'shiqlari, ertaklar, dostonlar, latifalar, xalq dramalari hamda yozma badiiy matnlarda turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Yozma adabiyotda so'z o'yinlari muallif nutqining muhim estetik unsuri sifatida shakllanadi. Badiiy matn keng qamrovli nutq shakli bo'lganligi sababli, uning tarkibi, asosan, so'z o'yini, tagma'no, presuppozitsiya, amfiboliya, allofroniya va ironiya unsurlari asosida tashkil etiladi. Mazkur hodisalarning ayrim jihatlari o'rganish bo'yicha o'zbek tilshunosligida muayyan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Badiiy matnda muallif so'zi ko'pincha yashirin kesatiq, istehzo, piching, pisanda, mazax, shama va boshqa yumorga moyil ko'chma ma'nolar orqali ifodalanadi. Bu esa o'quvchidan yuqori darajadagi semantik sezgirlik va fon bilimlarga tayanishni talab qiladi. Muallif nutqiga qo'yiladigan

talablar bir necha jihatda namoyon bo'ladi. Lingvistik jihatdan muallif til birliklarini mavzu va janr doirasida tanlaydi, so'z o'yini vositasida grammatik va semantik me'yoriylikni saqlagan holda ko'ptalqinli ifodalar yaratadi. Pragmatik jihatdan muallif o'quvchining bilim doirasi, tarixiy-madaniy tajribasi va interpretatsion imkoniyatlarini hisobga oladi. Stilistik jihatdan esa so'z o'yinlarini individual uslub, obrazlilik va estetik ta'sirchanlik bilan uyg'unlashtiradi. Badiiy matnda muallif nutqi o'zining pragmatik yo'nalganligi bilan ajralib turadi. Muallif o'quvchi tomonidan anglanishi mumkin bo'lgan darajada implitsit mazmun yaratadi. Sharqona badiiy tafakkurga xos "kosa tagida nimkosa" uslubida ifodalangan mazmun rus tilshunosligida "matn ichidagi matn", ya'ni podtekst atamasi bilan izohlanadi. O'zbek tilshunosligida bu hodisa tagma'no sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchi M. Hakimov tomonidan tagma'noning fonopragmatik, stilopragmatik, individual-xususiy, metaforik, ekspressiv va monologik turlari ajratilgan. So'z o'yini badiiy matnda shakl va mazmun o'rtasidagi nomuvofiqlikni, ya'ni asimmetriyani yuzaga keltiradi. Bu holat tasodifiy emas, balki muallifning aniq estetik va g'oyaviy maqsadiga yo'naltirilgan badiiy chekinishdir. Mazmun qanchalik muhim bo'lsa, uni ifodalovchi shakl ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning mazmuni shaklga solishdagi mahorati uning individual ijodiy uslubini belgilaydi.

Badiiy matn va anekdot xarakteridagi epizodlarda alluziya hodisasi asosida yashirin semantik strukturalarda hazil, kinoya va piching kabi ma'nolar yuzaga chiqadi. Alluziya (lot. *allusio* – ishora) keng tanilgan tarixiy, siyosiy, maishiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul sifatida talqin qilinadi. Presuppozitsiya badiiy matnning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. So'z o'yinlarini anglash jarayonida o'quvchi tomonidan chiqariladigan xulosalar presuppozitsiyaga tayangan holda shakllanadi. Badiiy matn kompozitsiyasi ko'pincha presuppozitsiya asosida quriladi va u o'quvchining faol interpretatsiyasini talab qiladi.

**Xulosa.** Badiiy matn ko'ptalqinlilikka asoslangan nutq ko'rinishi bo'lib, bunday holatlar tilshunoslikda amfiboliya va allofroniya terminlari bilan izohlanadi. Ushbu hodisalar orqali til birliklarining semantik imkoniyatlari kengayadi va ularning kontekstdagi funksional yuklamasi ortadi. Allofroniya va amfiboliya badiiy matnda so'z o'yinlarining ko'ptalqinli xususiyatlarini ta'minlovchi asosiy lingvistik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Muallif nutqida kinoyaviy mazmun — kesatiq, piching, qochirim, istehzo, masxara va shama yetakchi estetik vosita sifatida xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. –12 б.
2. Сафаров Ш. Контрастивная прагмалингвистика: актуальные задачи и перспективы изучения // Прагматика этноспецифического дискурса. Материалы симпозиума. –Бэлць, 1990. –С. 101-103.
3. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 28 б.

4. Коновалова О.Ю. Лингвостилистические особенности игра слов в современном английском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. Москва: Изд-во МГУ, 2001. –22 с.
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. –41 б.
6. Арнольд И.В. Статус импликации в системе текста // Интерпретация художественного текста в языковом вузе: (Методика исслед.). Межвуз. сб. научн. тр. Л.: Ленингр. гос. пед. инс-т. им. А.И.Герцена, 1983. –С. 6.
7. Романов А.А. Иллокутивные знания, иллокутивные действия и иллокутивная структура диалогического текста // Текст в коммуникации. Сб. науч. тр. / Ин-т языкознания, М., 1991. -С. 82-100.
8. L.Raupova, S.Sharipova. XIX asr birinchi yarmi yozma yodgorliklarida adabiy til muammosi. // Общество и инновации, 2021.

